

Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ

Выпуск №24 (том 3)
(март, 2022)

Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

УДК 37

ББК 94

Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №24 (том 3) (март, 2022). Дата выхода в свет: 31.03.2022.

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

FIZIKA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH Tojidinova Dilhumor	394
BOJXONA AUDITI MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISHDA BUXGALTERIYA HISOBI HUJJATLARINING AHAMIYATI M.Karimjonova, Sh.Egamberganov	399
МУҲАММАД ЮСУФ ҲАЁТИ ВА ИЖОДИ Рахматуллаева Хушбарой Илхомжон қизи	411
ПРИЗНАНИЕ ПРАВА ЧЕЛОВЕКА НА ВОДУ И САНИТАРИЮ НА МЕЖДУНАРОДНОМ УРОВНЕ: ОПЫТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН Хамитов Шахруз Равшанович	414
ТЕХНИКИ МЕТОДА РИСОВАНИЯ КАРАКАЛПАКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОРНАМЕНТОВ НА ОСНОВЕ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ФОРМ Исмаилов Алишер Муратбаевич	426
ЗАМОНАВИЙ ГЕОДЕЗИК АСБОБЛАРНИНГ МЕТРОЛОГИК КЎРСАТГИЧЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ А.А.Абдурахмонов	433
O'ZBEKISTON ICHKI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANIB QANDLI DIABETDA ARTEMISIA ABSINTHIUM DORIVOR O'SIMLIGINING RO'LINI OSHIRISH Anorboyev Qobuljon Xoliqberdiyevich	436
"BLENDED LEARNING" YOHUD ARALASHGAN TA'LIM TURI Tuychiyeva Parvina Baxodirovna	440
COMPERATIVE ANALYSIS OF ONOMATOPOEIA IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGE Dilnoza Isaqova, U.Maqsudova	444
CHO'LPON IJODINING BADIIY TAKOMILI Iroda Bahronova	448
TALABALARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI SHAKILLANTIRISHDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMASION TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH Karimova Nargiza Mamatkadirovna	451
VAGONLAR PARKINI BOSHQARISHDA TASODIFIY OMILLARDAN KELIB CHIQADIGAN XAVFLARNI KAMAYTIRISHNING MUMKIN BO'LGAN YONDASHUVLARI Xadjimuxametova Matluba Adilovna, Egamberdiyev Rustamjon Aliyevich, Abdullayev Rustam Yakubovich	455
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA UZLUKSIZ PSIXOLOGIK HIZMATNI TASHKILLASHTIRISH Raxmonova Dilafruz Alimovna	460

ФИО автора: *Iroda Bahronova,*

NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi

ФИО научного руководителя: *f.f.f.d. (PhD) N.J.Yarashova*

Название публикации: «CHO‘LPON IJODINING BADIIY TAKOMILI»

Annotatsiya. Ushbu maqolada Cho‘lpon lirikasining o‘ziga xos xususiyatlari, erk, ozodlik, hurlik singari tushunchalarni aks ettirgan misralar tahlil qilinadi. Yosh avlodda bugungi kunga shukronalik hissini uyg‘otishda Cho‘lpon she’riyatining o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: she’riyat, she’r, erk, ozodlik, hurlik, inson ruhiyati.

She’r shoir qalbining eng nozik torlarini cherta oladigan, butun vujudini titratadigan, shoirning qalb nidosini, kayfiyatidagi ko‘tarinkilikni singdira olgan tuyg‘ularning qog‘ozdagi aksi. Shundan bo‘lsa kerak, haqiqiy ijod mahsuli sifatida dunyoga kelgan she’rlar inson ruhiyatini bir zumda zabt eta oladi. Shoirning qalbida ma’lum bir voqea-hodisaga nisbatan paydo bo‘lgan munosabat, his-tuyg‘u ichki kechinma sifatida she’rga ko‘chadi. She’r bu jimjimador so‘zlardan iborat misralar degani emas, balki shoirning ko‘ngil kundaligidagi voqealar, kechmishlar deganidir asli. Sharq adabiyotining she’riyat bo‘stonidagi serjilo, go‘zallik, nafosat yuqoridagi tushuncha va tuyg‘ularga yo‘g‘rilganligidadir balki? Nima bo‘lganda ham, Abdulla Oripov aytganidek, “Sharqqa she’riyatni o‘rgatib bo‘lmaydi”. Gohida u isyonkor ruh ila xalqni odimlashga, birlikka chorlasa, gohida ishq-muhabbatning ilohiy qudratini madh etib, qalblarga surur bag‘ishlaydi, gohida esa umr, vaqt, hayot kabi azaliy tushunchalarga murojaat etib, o‘quvchini o‘ylashga, mulohaza yuritishga undaydi. Shu o‘rinda shoirlarning hissiyotga boy olamini tasvirlab o‘tar ekanman, kitob javonim sari yuzlanaman. Muhammad Yusuf, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov she’rlariga bir ko‘z yugurtirib, shu damda Cho‘lponning she’riyat bo‘stoniga nigoh tashlayman. Gul misoli hayotbaxsh ifor taratayotgan, kamalakning yetti rangi yanglig‘ jilva qilayotgan she’rlar kapalak singari gulbargiga qo‘nib, zavq olmoqqa undaydi. Bu gullar shu qadar turfaki, go‘yo uni Cho‘lponning ruhiyat manzarasidagi ranglar jilvasiga mengzayman. Cho‘lponning ruhiyat olami juda

keng. U o‘zining so‘ngsiz xayolot olamidan kelib chiqib, she’riy misralariga samimiy hislarni singdira oladi. Ayni damda she’riyatga ixlosmand qalb egasi sifatida Cho‘lponning lirikasi aks etgan kitobni varaqlay ketaman…

Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,
Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: men uni tushda ko‘ramen.
Tushimda ko‘ramen- shunchalar go‘zal,
Bizdan-da go‘zaldir, oydan-da go‘zal!

Bu qadar go‘zal misralar faqat Cho‘lpondek buyuk iste’dod egasi, xayolot olami cheksiz, samimiy tuyg‘ularini eng yuqori saviyada ifodalay oladigan shoir tomonidan yaratilishi mumkin. Unda oshiq holati shunchalar samimiy yoritilganki, qariyb bir asr bo‘libdi hamki, she’riyatga ixlosmand qalb egalari tomonidan zavq-shavq ila bu she’r mutolaa qilib kelinmoqda. Muhabbat ko‘chasiga kirgan lirik qahramon ko‘ngliga o‘t solgan go‘zalni axtarib, uni yulduzlardan, oydan, shamoldan, kundan so‘rab ko‘radi. Ular esa lirik qahramon qalbidagi o‘tni yanada kuchaytirib, yorning cheksiz go‘zalligidan so‘zlaydi. Cho‘lponning ijtimoiy lirikasini o‘qib, bahramand bo‘lar ekanman, uning har bir so‘zida, har bir satrida yuksak vatanparvarlik, erk, hurlik nafasi ufurib turadi. Bugungi kunda yashayotgan hech bir kishiga sir emaski, salkam bir yarim asr davomida xalqimizni mustamlaka zanjiri ona Vatanimiz aholisi boshiga ne-ne kunlarni soldi. Ertangi kundan, ertangi taraqqiyotdan bor umidini uzgan xalqni uyg‘otishga, birdamlikka erishishi uchun bel bog‘lagan Cho‘lpon kabi erksevar, xalqparvar, fidoyi kishilar emasmi? Ba’zan ana shunday o‘ylar, hislar meni og‘ushlaganda Cho‘lponning quyidagi misralari yodimga tushadi:

Shunday katta bir o‘lkada yonmagan,

Yiqilmagan, talanmagan uy yo'qmi?

Bir ko'z yo'qmi, qonli yoshi tommagan,

Butun ko'ngil umidsizmi, siniqmi?..

Cho'lpon har safar ijtimoiy mavzuga qo'l urar ekan, ichki kechinmalarida faqat erk tuyg'usi isyon qilganligini his etamiz. Ya'ni uning lirik asarlarida ijtimoiy hayot ichki kechinmalar uyg'unligida aks ettiriladi. Ayniqsa, "Vijdon erki" she'rida xalq boshiga tushgan zulm tig'ini shunday tasvirlaydi:

Zulm oldida har bir narsa,

Ehtimolki, bo'yin egar.

Agar zulm avjiga kelsa,

Ko'k boshi-da yerga tegar.

Anglaymanki, faqat yuksak iste'dod egalarigina ijtimoiy hayot bilan qalb kechinmalarini uyg'unlashtira oladi. Cho'lpon she'riyatidan zavq olib, yana xayolot ummoniga g'arq bo'laman. Shoir shunday insonki, u qalb tuyg'ularini misralarga joylab, uni abadiylikka muhrlaydi. Cho'lpon ijodida ham buni ko'rish mumkin. Uning she'rlarida muhabbatning sof talqini bilan birga bezovta ruhning, kishandan qutulmoq ilinjidagi ko'ngilning manzarasi bor. Muhabbat, hurlik, erk kabi azaliy tushunchalar mavjudki, asrlar davomida ular inson qalbida porlab, o'z tafti ila ko'ngillarni isitaveradi. Bu tuyg'ular aks ettirilgan misralarni esa yosh avlod takror va takror mutolaa qilib, o'zining ruhiyat olamini poklayveradi.

ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. . – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.

2. Yo'ldoshev M. Cho'lponning badiiy til mahorati: Filol.fan.nom.dis.avtoref. . – Toshkent, 2000.

3. Cho'lpon. Uyg'onish. – Toshkent,

4. Cho'lpon. Tong sirlari. – Toshkent,